

# Xalqaro anjuman o'z ishini boshladi

Bugun bir yo'nalishdagi fanning taraqqiyoti mamlakatda o'sha fan bilan bog'liq sohalarning rivojiga xizmat qiladi. 2023-yil 15-16-mart kunlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'simlik moddalari kimyosi institutida o'tkazilayotgan "Tabiiy birikmalar kimyosining dolzARB muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy anjuman o'z ishini boshladi. Xalqaro konferensiya doirasida tabiiy birikmalar va ularning hosilalari kimyosi, biologiyasi, farmakologiya va texnologiyasi, shuningdek ular asosida tibbiyot dori vositalari va qishloq xo'jaligi uchun preparatlar yaratish, hamda ularni amaliyatga joriy etish borasida erishilgan muvaffaqiyatlar, muammo va istiqbollari muhokama qilinadi. Anjuman 16-mart kuni o'z ishini yakunlaydi.



